

BOLALAR ADABIYOTIDA TARJIMANING O'RNI VA TARJIMA JARAYONIDA MADANIY MOSLASHTIRISH MASALALARI

Mannonov Sarvar Samar o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik

Fakulteti, 1-bosqich 25-07-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Ernazarova Nargiza Xidirovna,

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada bolalar adabiyoti tarjimasida madaniy uyg'unlashtirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari; bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari to'g'risida fikr yuritiladi. Maqolada shuningdek, realiyalar, milliy unsurlar, hazil va obrazlarning maqsadli auditoriyaga – yosh avlod uchun tushunarli shaklga keltirilishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: maqsadli auditoriya, realiya, milliy unsur, tarjima strategiyasi, kontsepsiya.

Abstract: This scientific article analyses the main challenges encountered in the process of culturally adapting children's literature during translation. It also reviews the scientific resources conducted in this field and the results of these studies. In addition, the article examines how realia, national elements, humor and imagery are adapted into forms that are clear and understandable for the target audience – young readers.

Key words: target audience, realia, national element, strategies of translation, conception.

Bolalar adabiyoti – bu bolalarning tassavvurini kengaytirishga, ularni yetuk tarbiyalashga xizmat qiladigan hikoya, ertak yoki she'rlar majmuyidir. Har bir hikoya yoki ertak bolalarga do'stlik, mehr-muruvvat va ona Vatan tushunchalarini anglashga yaqindan yordam beradi. Shunday ekan, bunday nodir asarlarni yosh avlodga to'g'ridan to'g'ri, asl ma'nosini saqlagan holda yetkazib berish, biz uchun – yosh

tarjimonlar uchun o'ta murakkab va katta mahorat talab etadigan ishdir. Sababi, aslyatda berilgan barcha tushunchalarni tarjima tiliga to'g'ridan to'g'ri olib o'tish, tarjimonning eng katta xatosidir. Aslyat tilida uchraydigan ba'zi so'zlar va tushunchalarni tarjima jarayonida o'zbek tilida mavjud bo'lgan ekvivalenti bilan almashtirish – madaniy moslashtirish jarayoni deb ataladi. Bu jarayonni tarjimada targ'ib etish, ayniqsa bolalar adabiyotida ko'proq talab etiladi. Bu borada Avstryalik olim Richard Bamberger shunday deydi: “Bolalar kitobni yoki biror hikoyani u tarjima qilinganligi uchungina o'qimaydi. Ular uchun muhim omil – asarning oson, ya'ni o'zlariga tushunarli tilda yozilganiligi, sarguzashtli va qiziqarli bo'lishi. O'smir yoshdagilarda bu omil muhim rol o'ynamaydi, ular uchun epizotlarning shaxsiy munosabatlari, ularning o'rtasida kechadigan ishqiy yoki romantik munosabatlar ularni ko'proq o'ziga jalb etadi va asarni davom ettirishga undaydi”. Shunday ekan, bu borada ko'plab jahon adabiyotining nodir durdonalari o'zbek bolalari uchun o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ular orasida Jonatan Sviftning “Gullivenning sarguzashtlari” (Gulliver's Travels), Daniyel Defoning “Robinzo va Kruzo”(Robinson Crusoe) va bundan tashqari Bicher Stouning “Tom tog'aning kulbasi” asarlari o'zbek bolalari tomonidan iliq kutib olindi va hozirga qadar yosh kitobxonlarning qo'lidan tushmay kelmoqda. Birgina J.Sviftning “Gulliverning sarguzashtlari” asari roman shaklida yozilgan bo'lib, Svift zamonasi uchun real bo'lgan hayot voqealiklarini, o'sha zamonning boy tabaqa vakillarini qattiq tanqid ostiga olib mahorat bilan tasvirlaydi. Romanning bolalarni o'ziga jalb etadigan taraflari shundaki, asarda sodir bo'lgan voqealar real hayotda sodir bo'lmaydigan, ya'ni mubolag'a shaklida yozilganligidadir. Asar bir kuni bosh qahramon - Gulliverning uyqudan uyg'onganda Liliputiya deb atalgan o'zidan 12 marta kichik bo'lgan mitti odamlar shahriga tushib qolishi va u yerda yirtqich va vaxshiy qiyofadagi Yexular qurshoviga tushib qolishi bilan boshlanadi. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda asarga bo'lgan qiziqish XX asrda paydo bo'ladi va ilk bor 1930-yilda Fattoh Abdullayev tomonidan ingliz tilidan o'zbek tiliga mohirona tarjima qilinadi; aslyat va tarjima o'rtasidagi o'xshashlik, ya'ni madaniy moslashtirish jarayoni 98.8 foizni tashkil etadi. Yuqoridagi raqamlardan

tarjimonning qay darajada mahoratli va o'z ishining ustasi ekanligiga amin bo'lamiz. F.Abdullayevdan keyin bu asarni 1937-yilda Abdulla Xo'jaxonov , 1948-yilda esa Sotivoldi Yo'ldoshev o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilganlar.

Tarjimada realiyaning o'rni. Dastlab realiya tushunchasi o'rta asr lotin tilida uchraydi va u "haqiqiy narsalar" degan ma'noni anglatgan, ya'ni mavhum tushunchalarga qaraganda borlik ma'nosini ifodalovchi tushunchadir. Bu tushunchalarni dastlab bolgar tarjimonlari Vlahov va Florinlar chuqur o'rganishgan va uning hozirgi zamonaviy ma'nosini ishlab chiqishgan. Realialarni tarjima qilish uchun alohida metodlar mavjud bo'lib , ular fonetik transkripsiyadan tortib , umumiy ma'no tarjimasigacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. Realiya va milliy unsurlar bolalar adabiyotida muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat matnni boyitadi , balki bolalarga o'z milliy madaniyati , urf-odatlar va hayot tarzi bilan tanishish imkonini beradi. Masalan , barchamiz sevib o'qigan "Garry Potter"(Harry Potter) asarida Hogvard maktabi o'quvchilari har yili 31-oktyabr kunida o'zlarining milliy bayramlari – Halloven bayramini keng nishonlashadi. Bu esa haqiqiy realiyaga misol bo'la oladi. Xo'sh , tarjimon buni o'quvchi yoshlarga qanday yetkazib berishi mumkin? Xuddi shu yerda realiya va milliy unsurlarni qo'llagan holda, asarda Halloveni niqoblar bayrami , deb ta'riflab ketilmagan bo'lsada, tarjimon o'z bilim va salohiyatini ishga solib , tarjima paytida "Halloven – niqoblar bayrami " , deb ta'riflab ketishi , tarjimonning shaxsiy kompetensiyasini ochib beradi. Milliy unsurlar esa ko'pincha o'zbek adabiyotida uchraydi. Ular bolalarda milliy o'zlikni shakllantiradi, madaniyatga qiziqish uyg'otadi va o'z tarixini anglashga yordam beradi. Bu unsurlarni xalq og'zaki ijodida , masalan , Alpomish qahramoni yoki To'raqul voqealari misolida ko'rishimiz mumkin .

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti kattalarnikiga qaraganda ko'proq e'tibor va boy so'z boyligini talab etadi. Adabiyotshunos N.Yuldashovning ta'kidlashicha, bolalar adabiyotini o'rganish va uni tatbiq etish uchun kamida ellik yil kerak bo'ladi , chunki biz farzandli bo'lib uni tilini o'rganmagunimizcha, bu borada biror ish olib borolmaymiz. Xuddi shunday fikrlarni jadidlarimizdan Abdulla Qodiriy

ham aytib o'tgan: "Bolalar uchun yozilgan asarlar ularning madaniy va ma'naviy ongini rivojlantirishi zarur. Agar bola o'qigan asaridan biror saboq yoki dars olmas ekan, u haqiqiy asar emas, shunchaki, qog'ozga bitilgan so'zlardir, xolos. Shuni ham aytish kerakki, bolalar adabiyotini o'rganish va ularning dunyosiga kirib borish yangicha dunyoqarash shakllantirish demakdir. Xullas, bolalarning madaniy o'zligi va milliy ongini rivojlantirish yosh go'dakni voyaga yetkazish bilan barobardir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lathey G. The translation of Children's literature - 6 p.
2. Nida E. The Theory and Practice of Translation - 1969 y.
3. Swift J. Gulliverning sayohatlari. – Toshkent: Sharq, 2009y.
4. Ahronqulov A., Rahmonqulov A. Jahon bolalar adabiyoti namoyondalari - Farg'ona, 2012.